



XIII VA XIV ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (2-QISM)

Mustafoev Abubakr Muhiddin o'g'li

Xalqaro Islom Akademiyasi "Islomshunoslik
va islom sivilizatsiyasini o'rganish ISESCO"

kafedrası tayanch doktoranti

mail:mustafoev.abubakr@bk.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8384981>

ARTICLE INFO

Received: 20th September 2023

Accepted: 27th September 2023

Online: 28th September 2023

KEY WORDS

Hanafiy mazhabi, usul ul-fiqh,
faqih, Buxoriy.

ABSTRACT

Bu maqolada XIII va XIV asrlarda Buxoroda yashab ijod etgan mo'tabar faqihlarning hayot yo'llari, o'zlaridan qoldirgan boy meroslari haqida so'z yuritiladi.

O'rta Osiyoni "Buxoriylar yurti" deb nom qozonishida katta hissa qo'shgan bu allomalarning qaysi buyuk ustozlardan ta'lim olganliklari, va qanday zabardast shogirdlar yetishtirganliklari bayon qilinadi.

Mazkur maqolada hanafiy mazhabiga ko'ra faqihlik darajasiga erishgan allomalargina zikr qilinadi.

Faqihlarning bir necha avlodlarining olib borgan faoliyatlari tufayli Movarounnahr maktabining an'analari va uning namoyondalari asarlari hanafiylik mazhabida bo'lgan turli mintaqalarda keng tarqaldi. Movarounnahrlik mualliflarning asarlari fiqh amaliyotida qo'llanma sifatida ham, talabalarni o'qitishda darslik sifatida ham foydalanildi.

Mana shunday allomalardan biri Mahmud ibn Ahmad ibn Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ali ibn Yusuf ibn Amr Sobuniy (vaf. hijriy 618 y.) edilar.

Mahmud ibn Ahmad ibn Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ali ibn Yusuf ibn Amr Sobuniy Abul Mahomid¹. Buxoro ahlidan² bo'lgan olim 578-yilda muhaddislar, faqihlar va ziyolilar³ oilasida tavallud topgan. 613-yilda haj safariga chiqib Bag'dodga ham safar qilgan. Tatar kofirlari⁴ Buxoroga hujum qilganda, Naysoburga ko'chib o'tgan. Tatarlar uni(Naysobur) qo'lga olgunicha o'sha yerda qolgan. 618-yil safar oyida o'ldirib shahid qilingan.

Mahmud ibn Ahmad ibn Abdu Sayyid ibn Usmon ibn Nasr ibn Abdulmalik Buxoriy, Jamoliddin, Abul Mahomid. Hasiriy⁵ nomi bilan mashhur olim Buxoroda 536-yil jumodul avval oyida tavallud topgan. Otasi tojirlik bilan mashhur bo'lgan⁶. Ko'pgina buxorolik olimlar qo'l

¹ Taqiyuddin ibn Abdulqodir Tamiymiy. Tobaqot as-saniyya. 2414-raqam ostida keltirilgan.

² Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir al-muziyya. -J: 3. - Daru hijr, 2007. -B:425.

³ O'sha asar. -J:3., -B:425.

⁴ Mo'g'il tatarlar bosqini.

⁵ Shamsuddin Zahabiy. Tazkirot al-huffoz. - J:4. 1425-raqam.; Abul faraj in Javziy. Miraat az-zaman. -J:8. -B:820-821.; Abu Shoma Maqdisiy. Zayl ar-rovzotayn. 121-raqam. Ibn Kasir. Bidoya van-nihoya. - J:13. -B:152.; Tosh Kubrozoda. Tobaqot al- fuqohaa. -B:107.; Jamoliddin Atabikiy. Nujum az-zohiro. -J:6. -B:313.; Abdulhayy Laknaviy. Favaid al-bahiyya. 205-raqam.; Ismoil Poshsho al-Bag'dodiy. Iyzoh al-maknuun. -J: 2. -B: 33.; Ismoil Poshsho al-Bag'dodiy. Hadiyyat al-orifiyn. -J:2. - B:405.; Ibn Qutlubg'o. Toj at-tarojim. 69-raqam.; Mahmud ibn Sulaymon Kafaviy. Kataibu a'laamil axyaar. 417-raqam, Taqiyuddin Tamiymiy. Tobaqot us-saniyya. 2319-raqam.; Kotib Chalabiy. Kashf uz-zunun. -J:1. -B:563. Shu haqida ma'lumotlar keltirilgan.

⁶ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. -J:3. - Daru hijr, 2007. -B:432.



ostida faqihlik darajasiga yetgan. Imom Hasan ibn Mansur Qozixon O'zjandiydan "Sahihi Muslim"ni eshitgan. Naysoburda (Nishopur) Mansur Furoviy va Muayyad Tusiylardan, Balxda Sharif Abu Hoshimdan ta'lim olgan. Shomga borib Nuriyya madrasasida dars beradi, mushkul masalalarda fatvo berib, hadisdan ta'lim beradi vas hu yerdan haj safariga boradi⁷. Malik Muazzam Iso, faqih alloma Mahmud ibn Obid Tamimiy Sarxadiy va Imom Yusuf Sibt ibn Javziylar Mahmud ibn Ahmad Buxoriy qo'l ostida faqihlik darajasiga yetgan.

Muhammad ibn Hasan (Shayboniy)ning muallafotlarini rivoyat qilgan va bu bilan alohida ajralib turadi. Imom Abu Hanifa ashoblarining rayosati allomada nihoyalangan.

Ko'p sadaqa ulashuvchi, ko'p ko'z yosh to'kuvchi, juda yaxshi fazilatli, husni xati chiroyli, obid zot bo'lgan. 636-yil 8-safar dushanba kunida vafot etgan. Sufiyya qabristonida dafn qilingan.

Allomaga Hasiriy⁸ deyilishi o'zi istiqomat qilgan Buxorodagi bo'yra toqiladigan mahallaga nisbat berilgan. Mahmud ibn Ahmad Hasiriy ham Bo'yra to'qib kun kechirgan. Hofiz Munziriy: "Damashqqa borganimda o'sha yerda ekanlar. U kishiga yetib boradigan ijozam bo'lsada o'zidan ta'lim olish Nasib qilmagan⁹", deb aytgan.

Mahmud ibn Ahmad Hasiriy bir nechta asarlar yozib qoldirgan. "Jome' ul-Kabir"ga ikkita sharh yozgan. Biri muxtasar bo'lsa keyingishi "Tahrir" deb nomlangan keng sharh hisoblanadi. Shogirdi Malik Muazzam Iso ham Mahmud ibn Ahmad Hasiriy qo'l ostida "Jomeul Kabir"dan ta'lim olgan. Fanlar va ular borasidagi asarlar haqida "Xoyru matlub"¹⁰ deb nomlangan asar ham yozgan. "Mabsut"ni o'z xatida ko'chirgan. "Siyar"ni o'ziga ijoza bergan shayxlarni jamlagan holda sharhlagan.¹¹

Mahmud ibn Hasan ibn Mahmud Abul Qosim Buxoriy¹². Rukn nomi bilan sifatlangan olim 592-yilda Buxoroda tavallud topgan. Xilof, usul, ilm ul-badiy' va she'r ilmlarini puxta bilgan faqih bo'lgan. 650-yil 6-ramazonda dushanba kuni kechqurun Damashqda vafot etgan.¹³

Mahmud ibn Qozi Buxoriy. Mujiyrul islom nomi bilan mashhur imom¹⁴. Ba'zi manbalarda Qozi Abu Yusuf avlodlaridan deb keltirilgan. 646-yil jumodul avval oyining 5-sanasida shanba kuni vafot etgan.¹⁵

Mahmud ibn Muhammad ibn Dovud Abul Mahomid Lu'luiy Afshanjiy Buxoriy faqih¹⁶. Abul Aloo: "627-yilda Buxoroda tavallud topgan", deb keltiradi¹⁷. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulmajid Qornabiy¹⁸ning qo'l ostida faqihlik darajasiga erishgan. Imom Zarnujiy, Sirojiddin Muhammad ibn Ahmad, Badruddin Xavoharzoda va

⁷ O'sha asar. –J:3., –B:432.

⁸ الحصر – arabchadan "bo'yra". Hozirgi "bo'yrobofon" mahallasi.

⁹ O'sha asar. –J:3., –B:432.

¹⁰ To'liq nomi "Xoyru matlub fi ilmil marg'ub".

¹¹ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. – J:3. – Daru hijr, 2007. –B: 433.

¹² Nusrotu misl us-sair (As-Sofdiynig asari) 46-raqam, Hadiyyat ul-orifiyn 2-tom 405-bet, Tobaqot us-saniyya 2428-raqam, Kashf uz-zunun. 2-tom 156-betlarda keltirilgan.

¹³ Javahir ul-muziyya. Muhiddin Abulvafo Qurashiy. – J:3. – Daru hijr, 2007. –B:437.

¹⁴ Toj at-tarojim. 72-bet, Tobaqot us-saniyya 2447-raqam ostida keltirilgan.

¹⁵ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. – J:3. – Daru hijr, 2007. –B:449.

¹⁶ Toj at-tarojim. 72-bet, Kataibu a'laamil axyaar 510-raqam, Tobaqot us-saniyya 2452-raqam, Kashf uz-zunun. 2-tom 1868-raqam bilan keltirilgan.

¹⁷ Boshqa nusxada "Qurashiy" deb keltirilgan.

¹⁸ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. – Daru hijr, 2007. 1192-raqam ostida keltirilgan.



Hamiduddin Ali Zorirdek¹⁹ ko'pgina faqihlardan ta'lim olgan. Mahmud ibn Muhammad Buxoriy faqih, imom, olim, muftiy, mudarris, voiz, mazhab bilimdoni va tafsir olimi bo'lgan²⁰. 671-yil mo'g'ul tatarlarning Buxoro istilosi²¹ paytida shahid qilingan.

Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf ibn Abu Said Hotim ibn Nasr Molik ibn Sam'on G'ijduvoni. Dinor ibn Abdullohning Molik ibn Anasdan rivoyat qilgan "Nusxoh" asarini Qozi Abu Bakr²² Muhammad ibn Hasan ibn Mansur Nasafiy Yusuf ibn Muhammad G'ijduvoniyan rivoyat qilgan. Sam'oni o'zining "Al-ansob" asarida "Nusxoh" haqidagi ma'lumot to'g'risida: "bu botil gap, bu haqda hech qanday dalil yo'q"²³, deb aytgan. Faqih Buxorodagi qishloqqa nisbat berilgan.

Ahmad ibn Muhammad ibn Shamsiddin Aqiliy Ansoriy Buxoriy. Olim ona tomonidan bo'lgan bobosi Sharofiddin Amr ibn Muhammad ibn Amr Aqiliydan rivoyat qilgan, u kishi Sodr shahid Hisomiddin Amr otasi Abdulaziz ibn Amr ibn Mozadan, u kishi Shamsul Ayma Saraxsiydan u kishi Halavoniydan u kishi Qozi Nasafiydan u kishi Abu Bakr Muhammad ibn Fozil dan u kishi Subazmuniydan u kishi Abu Hafs Sog'irdan u kishi otasidan u kishi Muhammad ibn Hasan Shayboniydan rivoyat qilishgan. Buyuk faqih "Jome' us-Sog'ir" bilan juda ko'p mashg'ul bo'lgan. Hatto go'zal bir nazmga ham tushirgan²⁴. Olim 657-yil Buxoroda vafot etgan. Sam'oni o'zining "Al-ansob" asarida: "Faqihning Aqiliy deyilishi Ali ibn Abu taolibning akasi Aqiy ibn Abu Tolibga nisbat berilishiga ko'ra", deb keltirgan²⁵.

Muhammad ibn Abdusattor ibn Muhammad Shamsul Ayma Kardariy.²⁶ 599-yilda tavallud topgan. "Mug'rob"ning sohibi Nosiriddin Mutriziyda ta'lim olgan. Tirishqoqlik bilan ilm olib, "Shirat ul-islam" sohibi Xotiyb Zodadan ilm oladi. Keyinchalik Imoduddin Umar Zaranjariy, Minhojush sharia Qivomiddin Saffor, Badriddin Amr Varsakiy, Sharofiddin Aqiliy, Nuriddin Sobuniylardan ham ta'lim olgan. Eng ulug' ustozlaridan Faxriddin Hasan ibn Qozixon va "Hidoya"ning muallifi Ali ibn Abu Bakrdirlar. Faqih barcha shariy ilmlarda yuksak darajalarga ko'tarildi hatto: "Abu Zayd Dabusiyan so'ng furu' va usul ilmlarini qayta tiriltiruvchi", deb ataldi²⁷. 642-yil 9-muharram jum'a kechasi Buxoroda vafot etgan. Ustoz Abdulloh Subazmuniy qabri oldida dafn qilingan²⁸.

Xohar Xoda nomi bilan mashhur Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim, Hamididdin Zorir Ali Romishiy, Hofiziddin Kabir Muhammad ibn Muhammad Buxoriy va Muhammad Mayomurg'iyar Shamsul Ayma Kardariy qo'l ostida faqih bo'lib yetishgan. Ibn Humom: "Juda ko'pchilik Karadriyning ta'limini olib faqih bo'lib yetishgan", deb keltiradi.

Jome': "Shamsul Aymma Kardariyning Imom Abu Hanifaga tuhmat qilgan ba'zi kishilar²⁹ga raddiyya sifatida yozgan risolasini ko'rdim", deganlar. Ibni Humom shu risolaning

¹⁹ Laknaviy. Favaid ul-bahiyya. 345-bet, 456-raqam

²⁰ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. -J:3. - Daru hijr, 2007. -B: 450.

²¹ Mo'gul tatarlarning Buxoroga 3- istilosi bo'lgan

²² Al-ansob 406-raqam bilan keltirilgan

²³ Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir ul-muziyya. -J:3. - Daru hijr, 2007.-B. 638.

²⁴ Laknaviy. Favaid ul-bahiyya. -B:57. 44-raqam

²⁵ O'sha asar. -B:57.

²⁶ O'sha asar. -B:290. 370-raqam.

²⁷ O'sha asar. -B:291.

²⁸ O'sha asar. -B:291.

²⁹ Tuhmatchi G'azzoliy



bir nusxasining avvalida: “Juda ko‘pchilik Karadriyning ta‘limini olib faqih bo‘lib yetishgan”, deb keltiradi.³⁰

Mahmud ibn Abu Bakr Abul A'loo Kaloboziy Buxoriy Shamsiddin Faroziy.³¹ Aqliy va naqliy ilmlarda benazirolim faroiz fanidan “Muxtasar as-Sirojiy”ni sharhlab, uni “Zovu siroj” deb atagan. Faqih yetti yuzdan ortiq shayxlardan, jumladan Hofiz al- Din al-Kabir Muhammad, Hamididdin Ali ad-Darir, Sadriddin Muhammad al-Xolotiy va Sadriddin Muhammad al-Xolotiy vaSadriddin Sulaymon ibn Vahb faroizni Najmiddin Umar ibn Muhammad al-Kaxshtvoniyan ta‘lim olgan.

Hofiz Shamsiddin Zahabiy aytadilar: “U hadis va ilmu rijoldan xabardor, fazilatlarga to‘la, juda ko‘p kitob yozgan, keng qamrovli, “Sunan as-sitta” haqida kitob yozgan, Abu Hayyon va Abdulkarim al-Bazzoliylar undan hadis eshitganlar, vafoti 700-yilda Mardinda, 649-yilda tug‘ilgan”³², deb keltiradi.

Al-Jomi’ aytadi: ““Zov’ as-Siroj” qimmatli kitob bo‘lib, turli mazhablarning dalillarini o‘z ichiga olagan. Unga “Minhaj” nomli muxtasar yozilgan”³³.

Zahabiy Kaloboziyning 644-yilda tug‘ilganligi haqida yozib “Mu‘jam al-Muxtasar”da shunday degan: “Mahmud ibn Abu Bakr bin Abu Al-Ala ibn Ali, buyuk imom, muhaddis, yetuk faqih Abu al-Alo al-Kalabodiy al-Buxoriy al-Hanqiy 644-yili Kalobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Buxoroda bir qancha olimdan ta‘lim olgan. Bag‘dod, Damashq va Misrda ham bir qancha faqihlardan ta‘lim olgan. Uning qo‘l ostida juda ko‘plab olimlar benazir asarlar bitgan. U 700-yilda Mardinda vafot etgan”³⁴.

Zahabiyning “Mushtabahan-Nisbah” asarida Faroziy haqida zikr qilib: “Hofiz Abu al-Alo Mahmud bin Abu Bakr Kalabodiy Buxoriy Faroziy yetuk imom, hadis va ilm ur-rijolni yaxshi biluvchi, faroiz ilmining olimi, ilm yo‘lida juda ko‘p safar qilgan faqih 700-yilda Mardinda vafot etgan”³⁵, deb keltiradi.

“Mirootul jinan” asarida 700-yil voqealari haqida keltirilib: “Unda so‘fiy va hofiz Abu al-Ala Mahmud bin Abu Bakr al-Buxoriy vafot etgan”³⁶, deyiladi.

Abu Hayyon Al-Andalusiy “Tabaqat al-qori”da: “Hadis shayxi Abu Al-Ala Mahmud al-Buxoriy Fardiy hadis ilmidan ta‘lim olish uchun Qohiraga kelgan edi.U xulqi muloyim,hazilkash, fazilatli kishi edi. Biz hadis talabida u bilan birga yurardik. Agar u biror bir yaxshi sanad ko'rsa: “Buxoriyning shartiga ko'ra bu to'g'ri”³⁷, der edi”, deb keltiradi.

Muhammad ibn Abdulqaqqiy Zarqoniy “Mavahib ul-laduniyya” keltirishicha: “Olim Buxorodagi katta “Kalabad” nomli mahallaga nisbat berilgan”³⁸. “Faroziy” esa Sayyid Jurjoniyy “Sharhu sirojiyya”da keltirganidek: “Faroiz ilmiga nisbat berilgan”³⁹.

³⁰ Laknaviy. Favaid ul-bahiyya. –B:291.

³¹ O‘sha asar. – B:345. 458-raqam.

³² O‘sha asar. –B:346.

³³ O‘sha asar. –B:346.

³⁴ Abdul Hayy Laknaviy. Favaid al-bahiyya fi tarojimil hanafiyya. –B:346.

³⁵ O‘sha asar. –B:346.

³⁶ O‘sha asar. –B:346.

³⁷ O‘sha asar. –B:346.

³⁸ O‘sha asar. –B:346.

³⁹ O‘sha asar. –B:347.



References:

1. Nuriddin Itr. Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis. –Damashq, Dor al-fikr, 2020.
2. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
3. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. –Bayrut.: Dar Ibn Kasir, 2020
4. Taqiyuddin Abdulqodir Misriy. Tobaqot as-saniyya. –Dar ur-rifo'y, 1983.
5. Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javahir al-muziyya. –Daru hijr, 2007.
6. Ibn Qutlubg'o. Toj ut-tarajim. – Dar ul-qolam, 1992.
7. Mahmud ibn Salmon. Kataibu a'laam il-axyaar.– Bayrut: DKI, 2018.
8. Yoqut Hamaviy. Mu'jam al-buldon. –Bayrut: DKI, 2011.
9. Hoji Xolifa. Kashf az-zunun. –Bayrut: Dar ihyau turos ul-arobiy, 1999.
10. Shamsiddin Zahabiy. Tazkirot al-huffoz. –Dairot al-maarif ul-Usmoniy, 1958.
11. Sabt ibn Javziy. Miraat az-zaman. –Damashq.: Dar risalat al-ilmiyya, 2012.
12. Abu Shoma. Zayl ar-rovzotayn. –Bayrut: Dar al-Jiyl, 1974.
13. Tosh Kubrozoda. Tobaqot al- fuqohaa. –Zahro al-hadis, 1961
14. Abdul Hayy Laknaviy. Favaid ul-bahiyya fi tarojum al-hanafiyya. –Bayrut, 1998
15. Ismoil Posho Bag'dodiy. Iyzoh al-maknun. – Dar ihya at-turos al-arobiy, 1945
16. Ismoil Posho Bag'dodiy. Hadiyyat al-orifin.– Dar ihya at-turos al-arobiy, 1951